



FAXRIDDIN SODIQ ASARLARIDA TABIIYLIK

Ummatova Xurshida Alisher qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti Tillar fakulteti Rus tili va
adabiyoti 1-bosqich talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-april 2023 yil
Ma'qullandi: 28-april 2023 yil
Nashr qilindi: 30-april 2023 yil

KEY WORDS

*Tabiiylik, badiiy adabiyot,
halollik, atom.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada yozuvchi Faxriddin Sodiq ijodi haqida
söz boradi. Uning hikoyalarida sodda o'zbek xalqi obrazi
haqida tushunchalar mavjud. Asarlarining yurakka
yaqin yozilganligi muhim ahamiyat kasab etishi
haqidadir.*

Inson badiiy asar o'qir ekan bevosita u asar ichida yashaydi ham. Badiiy asarlarni kuchi shunday b'ladiki, hatto insonni o'ylashga, tafakkur qilishga undaydi. Kitobxonning fikri -hayoli o'qiyotgan asari haqida b'lib qoladi. Kun -u tun o'ylanib, t'lgonib chiqadi. Undagi qahramonlar xuddi oquvchining qadrdonidek, xuddi tanish insonidek yaqin b'lib qoladi. Sevimli qahramoni aziyat cheksa, kitobxon ham hafa b'lad. Baxtli kunlarida sevinadi. Shu o'rinda o'zbek xalqining sevimli yozuvchi Abdulla Qahhorning "Adabiyot atomdan kuchli" degan fikriga yana bir bor amin b'lamiz. Yozuvchi o'z asarlariga kitobxonni qarata olsa, qalbidan joy egallasa, demak, u haqiqiy yozuvchidir. Faxriddin Sodiq ham aynan ana shunday yozuvchilardandir. Uning "Qaytmagan bahor", "Taraddud", "Qaltis qadam", "Taraddud", "Qarz" kitoblari va

"Yigirma yillik vada" hikoyalar to'plami nashrdan chiqqan. Uning har bir hikoyalari insonlar qalbidan joy egallaydi. Jumladan, "Shodmon bobo", "Jigarbandlar", "B'ri sadoqati", "Mehr o'gri", "Sadoqat timsoli", "Ishonch" hikoyalari adib tomonidan yuksak mahorat bilan yozilgan. Hikoyalarining bir -biri bilan o'zaro aloqasi bordek g'yo. Hamma qahramonlar sodda, begubor-o'zbek xalqini k'rasatib bera oladi. Inson qadriyatlarining yorqin namoyondasi b'lmish halollikni yoritib bergan hikoyasi "Mehr o'gri" hikoyasidir. Bu hikoyada halol otaning farzandi ham halol b'lishi, inson halol b'lishi kerakligi haqida yozilgan. Xalqimizni bir oqilona naqli bor. Yani, "Olma tagiga olma tushadi". Albatta inson o'z ota -onasiga o'xshaydi, ularni y'lidan yuradi. O'z farzandini halol b'lishga undagan ota bir hodisa tufayli o'glini ayblaydi, lekin, bu o'rinda farzandi farzandi aybsiz edi. Hikoyaning s'ngida o'quvchi, ham hursand, ham hafa b'lad.

"Jigarbandlar" hikoyasida esa, qalbni jumbushga keltiruvchi qarindoshlik hissi madh etilgan. Jigarlik rishtasi insonga hammadan k'ra yaqin b'lad. Har qanday kunda yoningda turuvchi ham jigardir. Bu hikoyani o'qirkansiz, beixtiyor o'z yaqinlaringiz k'z oldingizdan o'tadi. Aka -singil bir biriga mehri shunchalik kuchli b'ladiki, hatto singli o'z jigarg'oshasini farzandsiz akasiga beradi. Akasining quvonchi uchun, o'z qayg'usiga rozi b'lad.

Ernest Seton Tompson jahon adabiyotida birinchi b'lib o'z asarlarida hayvonlarni bosh

qajramon qilib oladi. U bolaligidan qushlarga, hayvonlarga qiziqadi. Asarlarida jonjodlarni odamlardek tariflaydi. Bu òrinda nega Tompsonni esladik? Sababi shundaki, Faxriddin Sodiqning "Bòri sadoqati" nomli hikoyasi ham aynan shunday ruhda yozilgan. Bòri òziga yordam bergan bolani yaxshiligini unutmaydi. Bolani hayotini saqlab qoladi va bola buni hech qachon unutmaydi. Demak, nafaqat insonlarda, balki jonzodlarda ham sadoqat, dòstlik, vafo tushunchalari bor ekan. Biz bularni asarlardan bilib olamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, F. Sodiq kòp asarlarini hayotdan oladi. Hayotiy voqealarga boğlaydi. Balki aynan shuning uchun ham uning asarlari qalb tòridan joy egallaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. <https://Kitobxon.com>
2. <https://www.ziyouz.com>
3. <https://kh-davron.uz>

